

<https://www.elibrary.imf.org/display/book/9798400260391/9798400260391.xml?cid=lk-com-dsp-imf.org>

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosatining 2025 yil va 2026-2027 yillar davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. – Toshkent, 2024.

<https://cbu.uz/upload/medialibrary/afe/e4wiw1uxgs>

[8623rebl9f1z12kvoz1njg/Pul kredit siyosati asosiy yunalishlari.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/afe/e4wiw1uxgs/8623rebl9f1z12kvoz1njg/Pul_kredit_siyosati_asosiy_yunalishlari.pdf)

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Statistik Byulleteni. – Toshkent, 2026.

8. <https://cbu.uz/upload/medialibrary/b2f/3yi0t46xn> [18o2xhiqpfveku2jscf702/MB-Statistik-byulleteni--2025-yil.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/b2f/3yi0t46xn/18o2xhiqpfveku2jscf702/MB-Statistik-byulleteni--2025-yil.pdf)

9. Shamansurova, Z., O'rinboyev, U., & O'rinboyev, UB "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*, 1 (3), 100-106.

<https://www.neliti.com/publications/636581/priority-directions-for-ensuring-national-currency-stability-within-the-ramewor>

XORIJIY INVESTISIYALARNI JALB ETISH VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Hamdamova Nilufar Hamdullo qizi

TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

Anotatsiya. Ushbu tezisda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investisiya faolligining o'sish sur'atlari investisiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqligi va xorijiy investitsiyaning ahamiyati yoritib berilgan. Xorijiy sarmoyalar mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga, ish o'rinlari yaratishga va texnologik taraqqiyotga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi. Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilishning samarali usullari va strategiyalari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, investisiya muhitini yaxshilash, investisiya siyosati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TXI), iqtisodiy rivojlanish, investisiya faolligi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni yangi zamonaviy texnologiyalar bilan, qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarda tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investisiya muhitini yaratib berish kerak. Investisiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O'zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Endi bu sharoitni yaratishga urinishlar bo'lmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investisiya muhitining ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyluklar va yo'nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat

yuritishlari to'g'risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Investisiya muhiti juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma'lum bir davlatga investisiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investisiya faolligining o'sish sur'atlari investisiya muhitiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Investisiya muhitining jozibadorligi xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi. Iqtisodiyotda investisiya faoliyatining rivojlanishi, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilishning ko'lami, yo'nalishlari va samaradorligi, bevosita, investisiya muhitiga bog'liqdir.

Iqtisodchi olimlardan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Mo'minovlar investisiya muhiti to'g'risida quyidagilarni ta'kidlab o'tadilar: «Investisiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investisiya muhiti kompleks, ko'pqirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-sharoitlar (inqiroz, o'sish,), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega»⁹⁰. Shuningdek, mamlakatdagi investisiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatuvchi iqtisodiy, siyosiy, me'yoriy-huquqiy, ijtimoiy va boshqa shart-sharoitlar majmui investisiya muhitini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek «Investisiya muhiti» va «Investisiya iqlimi» sinonim tushunchalar sifatida ishlatiladi. Bu xususda iqtisodchi olimlardan D.G'ozibekov va T.Qoraliyevlar tomonidan keltirilgan yana bir quyidagi fikrlarini keltirsak: «Investisiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafko'rasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi»⁹¹.

Investisiya muhitining holatini investisiya faoliyatini amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, huquqiy, siyosiy, ekologik va boshqa shart-sharoitlarning umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investisiya muhiti deganda, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning ma'lum bir hududiga kiritiladigan investitsiyalarning samaradorligini va xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy-

⁹⁰ Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 153.

⁹¹ G'ozibekov D.G., Qoraliyev T.M. Investisiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. -T.: Moliya 1993, 46-b.

huquqiy, ekologik, madaniy va boshqa shart-sharoitlar majmuasi tushuniladi. U muayyan hududga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan shart-sharoitlarning mavjud ijobiy va salbiy tomonlarini anglatadi.

Xorijiy olimlar ushbu jarayonning nazariy asoslarini chuqur tadqiq etganlar. Jumladan, John Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership–Location–Internalization) paradigmasiga ko‘ra, mamlakatning investitsion jozibadorligi uning resurs salohiyati, bozor hajmi va institutsional muhitiga bog‘liqdir. Bu yondashuv investitsiyalarni jalb etishda qulay geografik joylashuv, tabiiy resurslar va barqaror huquqiy tizim muhimligini asoslaydi.

Shuningdek, Michael Porter o‘zining “The Competitive Advantage of Nations” maqolasida milliy raqobat ustunligi nazariyasida xorijiy investitsiyalarni innovatsion rivojlanish va sanoat klasterlarini shakllantirish omili sifatida baholaydi. Uning fikricha, investitsiyalar ichki raqobat muhitini kuchaytirib, korxonalarni samaradorlik va sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar bir qator muhim ijobiy natijalarni ta‘minlamoqda. Avvalo, bu investitsiyalar ish o‘rinlarini yaratishda sezilarli rol o‘ynaydi: so‘nggi uch yil davomida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarda 140 mingdan ortiq yangi ish o‘rinlari tashkil etilib, bandlik darajasi oshishi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanishi va mehnat bozorining rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shilgan. Yirik investitsion loyihalar orqali sanoat tarmoqlarida ilg‘or texnologiyalar joriy qilinmoqda, korxonalarda xalqaro tajriba asosida raqamli boshqaruv tizimlari, energiya tejamkor uskunalari va samarador ishlab chiqarish liniyalari tatbiq etilmoqda, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasini ta‘minlaydi. Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eksport salohiyatini oshirishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. «2024-yilda bu korxonalar tomonidan amalga oshirilgan mahsulot eksporti 7,8 milliard AQSH dollarini tashkil etib, mamlakatning umumiy eksport hajmining 28 foizini tashkil etdi.»⁹² Natijada O‘zbekistonning eksport geografiyasi kengayib, milliy ishlab chiqaruvchilar xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari, xorijiy kompaniyalar mahalliy yetkazib beruvchilar bilan kooperatsiyani rivojlantirib, qo‘shma qiymat zanjirlarini yaratmoqda. Bu esa ichki ishlab chiqaruvchilar uchun yangi bozor imkoniyatlarini ochadi va sanoat tarmoqlarining integratsiyalashuv darajasini oshiradi. Shu bilan birga, xorijiy investitsiyalar O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda milliy mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o‘zida aks

⁹² Maxkamov O.M. “O‘zbekiston sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish: holati, muammolar va istiqbollari” Yashil Iqtisodiyot Va Taraqqiyot 2025-yil, oktyabr. № 10-son.

ettirgan voqelikdir. Investisiya muhitini yaxshilashdan maqsad investisiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investisiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat. Ular nafaqat moliyaviy resurslarni jalb etadi, balki yangi texnologiyalar, zamonaviy boshqaruv uslublari va malakali kadrlarni ham olib keladi.

Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar sanoatni modernizatsiya qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini kengaytirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar natijasida investitsion jozibadorlik sezilarli darajada oshdi. Mamlakat investitsiyalarni jalb qilish va ularni samarali qo'llab-quvvatlash borasida, bugungi kunda qulay soliq siyosati, erkin iqtisodiy zonalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirishga alohida etibor qaratish lozim. Xususan, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini modernizatsiya qilish va innovatsion ekotizimni rivojlantirish, yuqori qiymatga ega investitsiya loyihalarini jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish imkoniyatlarini oshiradi. Investitsiya siyosatini hududlar kesimida differensial yondashuv asosida olib borish esa mahalliy resurs va salohiyatdan samarali foydalanish imkonini beradi. Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini kompleks va izchil ravishda amalga oshirish, uni milliy rivojlanish ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati ro'yxati:

1. *Moosa, Imad A. Foreign Direct Investment. Palgrave Macmillan*
2. *Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 153.*
3. *G'ozibekov D.G', Qoraliev T.M. Investisiya faoliyatini tashkil etish va davlat tomonidan tartibga solish. -T.: Moliya 1993, 46-b.*
4. *Rasulov, M.R., Ergashev, T.I. (2020). Investitsiyalarni boshqarish. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.*
5. *Maxmudov N.M., Avazov N.R. — O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. 2019- yil*
6. *Vaxabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G. — Xorijiy investitsiyalar – Toshkent: 2020- yil*
7. *Bektemirov A.B., Ruzibayeva N.X., Azimova R.I. — Investitsiya va innovatsiyalar, 2020-yil*
8. *Xodjaye, J. "Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar." Green Economy and Development Journal.*
9. *Imomov Xamdilla Xamdovich, IMPROVING THE INVESTMENT CLIMATE IN UZBEKISTAN SOME IMPORTANT ISSUES. (2025). World Economics and Finance Bulletin, 53, 12-15.*

10. Imomqulov, T. (2023). *The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth in Uzbekistan. Green economy and development*, 1(9)

11. Ochilov, B., Hoshimov, J., & Butayev, J. (2024). *IQTISODIYOTGA xorijiy investitsiyalarni jalb etishda mamlakat investitsion jozibadorligi: nazariya va amaliyot (Monografiya)*

SHVEYTSARIYA BANK TIZIMI VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH: MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR TAHLILI

Murodov Rustam Tohir o‘g‘li

*Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Menejment” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada Shveysariya bank tizimining biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashdagi roli, moliyaviy instrumentlar tizimi hamda institutsional mexanizmlar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida bank kreditlari, investitsion moliyalashtirish, kafolat mexanizmlari, venchur kapital, davlat va nodavlat institutlarining o‘zaro hamkorligi o‘rganiladi. Shuningdek, Shveysariya modeli asosida rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan O‘zbekiston uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Shveysariya bank tizimi, biznesni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy instrumentlar, institutsional mexanizmlar, kreditlash, investitsiyalar, moliyaviy innovatsiyalar.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida biznes subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini samarali tashkil etish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bank tizimi, moliyaviy instrumentlar va institutsional mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligi tadbirkorlik muhitini shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shveysariya moliya tizimi o‘zining barqarorligi, shaffofligi, innovatsion yondashuvlari hamda institutlararo integratsiyalashgan modeli bilan xalqaro miqyosda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ushbu model doirasida banklar, davlat institutlari, moliyaviy fondlar, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya platformalari va innovatsion infratuzilmalar o‘zaro hamkorlikda biznesni kompleks qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirgan.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Shveysariya bank tizimi orqali biznesni qo‘llab-quvvatlashda qo‘llanilayotgan moliyaviy instrumentlar va institutsional mexanizmlarni tizimli tahlil qilish hamda ularning iqtisodiy samaradorligini baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari rivojlanayotgan mamlakatlar uchun muhim metodologik va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Bank tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi roli. Bank tizimi iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni safarbar etish, qayta taqsimlash va investitsiyalarga yo‘naltirishning asosiy institutsional mexanizmi hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy